

SUG'URTA MUNOSABATLARINING IJTIMOY AHAMIYATI

Jiyanova Shohidaxon Mahsumovna
Farg'ona viloyati yuridik texnikumi
maxsus fan o'qituvchisi, 3-darajali yurist.

Ahmedov Abrorjon Ahrorjon o'g'li
Farg'ona viloyati yuridik texnikumi
“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi 1-bosqich 37-guruh o‘quvchisi

Annotatsiya:

ushbu maqolada mualliflar tomonidan sug'urta tushunchasi, jamiyatda sug'urta munosabatlarning vujudga kelishi, uning ijtimoiy ahamiyati hamda funksiyalari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta munosabatlari, maqsadli pul zahiralari, sug'urta badallari, investitsiya vositasi, sug'urta tashkiloti.

Аннотация: в данной статье авторами рассмотрены понятие страхования, возникновение страховых отношений в обществе, его социальное значение и функции.

Ключевые слова: страхование, страховые отношения, целевые денежные резервы, страховые взносы, инвестиционный инструмент, страховая организация.

Abstract:

This article reflects on the concept of insurance, the emergence of insurance relations in society, its social significance and functions by the authors.

Key words: insurance, insurance relations, targeted monetary reserves, insurance contributions, investment instrument, insurance organization.

Insoniyat taraqqiyotining qadimiy bosqichlarida ham sug'urta tushunchasini aks ettiruvchi munosabatlarning mavjud bo'lganligini tarixdan guvohlik beruvchi



ko'plab asarlardan bilib olishimiz mumkin. Bu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan iqtisodchi olimlarimizning ta'kidlashlaricha, ibtidoiy jamoa tuzumida urug' va qabila shaklida hayot kechirgan shaxslar oldindan aytib bo'lmaydigan turli xil hodisalardan saqlanish maqsadida oziq-ovqat zahiralari yaratganlar. Demakki, qadim zamonlarda ham davrlarda kutilmagan va to'satdan bo'ladigan, inson irodasiga bog'liq bo'lmagan voqea-hodisalar ro'y berganda ko'riladigan zararlarni qoplash uchun zahiralarni tashkil etganlar.

Tarixiy manbalarga ko'ra, miloddan 2000 yil oldin Vavilon podshohi Xammurapi qonunlarida, shuningdek, Fors ko'rfazi, Qadimgi Gretsiya va Misr, Qadimgi Rimdagi savdogarlarning o'zaro tuzgan bitimlarida ham kelgusida yuz berishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni o'rnini qoplash bilan bog'liq kelishuvlar o'z aksini topgan. Bu bitim shartlariga muvofiq, umumiy karvon safida savdo qiluvchi savdogarlardan birortasi salbiy hodisalar yoki qaroqchilar hujumi oqibatida zarar ko'rsa, bunday zararlar boshqa savdogarlar tomonidan qoplanishi belgilangan. Albatta, bu davrlarda maxsus sug'urta tashkilotlari bo'lmagan va sug'urta badallari to'lanmagan.

Insoniyat sivilizatsiyasi boshlangan davrdan bugunga qadar ko'p yillar o'tsa-da, sug'urtaning fundamental, ilmiy asoslangan prinsiplaridan biri bo'lgan turli baxtsiz hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararlarni qoplash maqsadida zahiralarning shakllantirilishi hali hanuz ham saqlanib kelmoqda.

Sug'urta bu kutilmagan noxush hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash uchun maqsadli pul zahiralari shakllantirilishi va ulardan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar deganidir. Yana bir rus olimi prof. B.Yu.Serbinovskiy sug'urta tushunchasiga: "sug'urta yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta badallari (mukofotlari)dan shakllanadigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) ro'y berganda ushbu shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha munosabatlar tizimidir"¹- deya ta'rif keltiradi. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabrda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasi² da sug'urta deganda muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararning o'rnini qoplash, tovonlar va boshqa to'lovlar to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil

¹ Сербиновский Б.Ю. Страхование дело. – М. "Феникс", 2000 г. с.7.

² O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabr O'RQ-730-son "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5739117?ONDATE=25.02.2022%2000>.



etish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar tizimi tushunilishi e'tirof etiladi.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda sug'urta kundalik hayotning ajralmas bir qismiga aylanganligini alohida ta'kidlash mumkin. Vaholanki, bugungi kunda AQSH, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi va boshqa bir qator davlatlarida fuqarolar faqat o'z hayotlarinigina emas, balki butun mol-mulkini, farzandlarini to'liq sug'urtalaganini uchratish mumkin.

Shu o'rinda o'zi sug'urta nima uchun kerak degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. Bunda biz sug'urta qildirishning ayrim ahamiyatli jihatlarini ko'rib o'tishni ma'qul topdik.

Birinchidan, biz o'z mol-mulkimizni sug'urta qildirsak, mabodo kelgusida sug'urtalangan mol-mulk qandaydir oldindan ko'rib bo'lmaydigan hodisalarni yuz berishi natijasida shikastlansa, ko'rilgan zarar miqdori sug'urta tashkiloti tomonidan qoplab beriladi. Demak, o'z mol-mulkini sug'urta qildirgan shaxs sug'urta tashkiloti to'lagan sug'urta qoplamasi hisobiga yo'qotilgan moddiy boyliklar qiymatini tiklaydi. basharti, sug'urtalovchi tegishli sug'urta qoplamasini bermasa, zarar ko'rgan shaxs o'z mol-mulki qiymatini tiklay olmasligi ham mumkin.

Ikkinchidan, ma'lumki, sug'urtalangan shaxsga to'langan sug'urta qoplamalari va summalari soliqqa tortilmaydi. Ba'zi fuqarolar sug'urtaning mana shu xususiyatidan to'liq xabardor emaslar. Amaldagi soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq, jismoniy hamda yuridik shaxslar oladigan daromadlar belgilangan tartibda daromad (foйда) solig'iga tortilishi lozim, ular uchun berilgan imtiyozlar bundan mustasno. Biroq, sug'urta hodisalari yuz berishi barobarida ko'rilgan zararlarni qoplash uchun sug'urta tashkilotlari tomonidan to'langan pul mablag'lari jismoniy hamda yuridik shaxslarning daromadi sifatida e'tirof etilmaydi.

Uchinchidan, korxonalar va tashkilotlarning o'z mol-mulki yoki boshqa manfaatlarini ixtiyoriy sug'urta qilish bilan bog'liq harajatlari daromad (foйда) solig'i bazasidan chiqariladi. Aytib o'tish lozimki, 2002 yilning boshlariga qadar korxonalar va tashkilotlar o'z mol-mulkini ixtiyoriy sug'urta qilish bo'yicha to'lagan sug'urta mukofotlari ham soliqqa tortiladigan obyektlar bazasiga kiritib kelingan edi. Bu esa, tabiiyki, ularni ixtiyoriy sug'urtaga bo'lgan manfaatdorligini yanada pasaytirib keldi. Shu sababli ham mamlakatimizdagi mavjud korxonalar va tashkilotlarning



ko'pchiligi sug'urta himoyasiga olinmaganligining omillaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

To'rtinchidan, sug'urta qilish yo'li bilan to'plangan sug'urta mukofotlarini katta qismi sug'urta zahiralarida saqlanadi hamda u sug'urta tashkilotlarining iqtisodiyotni turli jabhalariga investitsiya kirituvchi investorga aylantiradi. Aytib o'tilgan fikrlardan kelib chiqib, sug'urta himoya vositasi bo'lish bilan birga iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omillardan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Sug'urta quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- sug'urta fondini tashkil etish bilan bog'liq funksiya.
- sug'urta fondidan foydalanish bilan bog'liq funksiya.
- nazorat funksiyasi.

Yuqorida qayd etilgan funksiyalar sug'urta faoliyatida doimiy hisoblanadi va har qanday sharoitda o'zgarmasdir. Sug'urta ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyat sifatida huquqiy tomondan mustahkamlanishni talab etadi. Sug'urta fondini tashkil etish va undan foydalanish jarayonida paydo bo'ladigan munosabatlar huquqiy tartibga solinadi.

Sug'urta sohasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlar tarkibiga kiradi. Bunday munosabatlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, shartnoma majburiyatlarini, shuningdek, mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Yuqorida aytib o'tilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, jamiyat hayotidagi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanib borishi sug'urta munosabatlarning ham o'z-o'zidan mavjud bo'lishi va taraqqiy etishini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabr O'RQ-730-son "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
<https://lex.uz/docs/5739117?ONDATE=25.02.2022%2000>.
2. H.Sobirov. Sug'urta: 100 savol va javob.-T.: "Mehnat" nashriyoti, 1998 yil.
3. Сербиновский Б.Ю. Страховое дело. – М. "Феникс", 2000 г.

